XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 22-iyul VI-56-103-3-43-K/24 Arnasoy tumani

Arnasoy tumanining Mirzacho‘l, Do‘stlik, Zafarobod hamda Forish tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida.

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-,24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman kengashi

QAROR QILADI:

1. Arnasoy tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhining Mirzacho‘l, Do‘stlik, Zafarobod hamda Forish tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

- Arnasoy tumanining Mirzacho‘l, Do‘stlik, Zafarobod hamda Forish tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

- Arnasoy tumanining Mirzacho‘l, Do‘stlik, Zafarobod hamda Forish tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Nurmatov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi  SUYAROV MUXIDDIN MIRZAYEVICH

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2024-yil 22-iyuldagi
VI-56-103-3-43-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Arnasoy tumanining chegarasini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha

TAVSIFI

Forish tumani, Arnasoy tumani va Mirzacho‘l tumani chegara chiziqlari kesishgan joy dala tuproq yo‘lining g‘arb tomonida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1–nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimda, *shimoliy kenglik 40°45'4,237",sharqiy uzunlik 67°48'23,272").*

A dan B gacha Mirzacho‘l tumani yerlari bilan 1– 15 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i Forish tumani, Arnasoy tumani va Mirzacho‘l tumani chegara chiziqlari kesishgan joy dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 444 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'50,158",sharqiy uzunlik 67°48'24,956").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining avval shimol tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 903 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 633 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'7,887",sharqiy uzunlik 67°47'54,717").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 110 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 348 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'54,633",sharqiy uzunlik 67°48'3,530").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomon bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1940 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'18,996",sharqiy uzunlik 67°49'19,580").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib zovurga tutashadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1807 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashagan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'26,896",sharqiy uzunlik 67°49'54,610").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1546 metr masofani o‘tib quruq ariqga tutashadi, keyin quruq ariqning chap tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 95 metr masofani o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'50,998",sharqiy uzunlik 67°50'55,907").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariqni kesib o‘tib quruq ariqga tutashadi va ariqning o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 307 metr masofada

latokni kesib o‘tib haydalma yer chegarasiga tutashadi keyin haydalma yer chegarasi bo‘ylab o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 328 metr masofada haydalma yerdan zovurga o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'58,814",sharqiy uzunlik 67°51'20,878").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1034 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'28,862",sharqiy uzunlik 67°51'1,329").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1746 metr masofada zovurni kesib o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga *(shimoliy kenglik 40°44'54,138",sharqiy uzunlik 67°52'7,928").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 811 metr masofada zovurni kesib o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'5,955",sharqiy uzunlik 67°52'38,814").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1386 metr masofada latokga o‘tadi, keyin o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda latokning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 3527 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 40°42'43,638",sharqiy uzunlik 67°54'12,661").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan o‘tib latokga tutashadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda latokning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1196 metr masofani o‘tib latok bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'8,994",sharqiy uzunlik 67°54'35,567").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda latokning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 4685 metr masofani o‘tib latok bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'52,966",sharqiy uzunlik 67°56'4,219").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2528 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 213 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'33,374",sharqiy uzunlik 67°56'56,069").*

B dan D gacha Do‘stlik tumani yerlari bilan 15– 29 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

15-nuqtadan chegara chizig‘i kanalni kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2908 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'27,408",sharqiy uzunlik 67°55'14,638").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2819 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'31,711",sharqiy uzunlik 67°53'14,765").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1808 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'34,253",sharqiy uzunlik 67°51'57,881").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3728 metr masofani o‘tadi, keyin avtomobil yo‘lini hamda zovurni kesib o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1351 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'49,628",sharqiy uzunlik 67°52'0,707").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3378 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'4,610",sharqiy uzunlik 67°52'41,323").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 4380 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'45,838",sharqiy uzunlik 67°55'39,377").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3005 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 40°34'11,357",sharqiy uzunlik 67°56'10,490").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4246 metr masofani o‘tadi keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali o‘z janubiy yo‘nalishda 84 metr masofada dala tuproq yo‘lini, kanalni va zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'55,518", sharqiy uzunlik 67°56'54,039").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 199 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yidagi 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'55,770",sharqiy uzunlik 67°57'2,504").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1817 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'56,929",sharqiy uzunlik 67°57'4,161").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan o‘tib tomorqa chegarasiga tutashadi va g‘arbiy yo‘nalishda 25 metr keyin janubiy yo‘nalishda 147 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 90 metr masofada yo‘lni va zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'49,210",sharqiy uzunlik 67°57'3,380").*

26-nuqtadan chegara chizig‘izovurnining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 878 metr masofada zovurni kesib o‘tib latok bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'48,563",sharqiy uzunlik 67°56'26,096").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda latokning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1206 metr masofani o‘tib, latok bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'09,580", sharqiy uzunlik 67°56'30,141").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i latokdan beton ariqqa o‘tadi va o‘z janubiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1144 metr masofani o‘tadi keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalni va dala tuproq yo‘lini 35 metr masofada kesib o‘tib, Arnasoy tumani, Do‘stlik tumani va Paxtakor tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'31,883",sharqiy uzunlik 67°56'33,429").*

D dan E gacha Paxtakor tumani yerlari bilan 29– 31 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

29-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4262 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'23,444",sharqiy uzunlik 67°55'26,869").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 698 metr masofani o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 52 metr masofani o‘tib, Arnasoy tumani Paxtakor tumani va Zafarobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'10,128",sharqiy uzunlik 67°55'4,112").*

E dan F gacha Zafarobod tumani yerlari bilan 31– 36 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

31-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 6732 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'6,913",sharqiy uzunlik 67°51'8,439").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 309 metr masofada zovurni va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'01,328", sharqiy uzunlik 67°50'57,542").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2762 metr masofada yo‘l bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'22,354",sharqiy uzunlik 67°49'3,978").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3245 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘li bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'46,154",sharqiy uzunlik 67°46'49,909").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib beton ariqga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3563 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 457 metr masofani o‘tib Arnasoy tumani, Zafarobod tumani va Forish tumanlari chegaralari kesishgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'10,571",sharqiy uzunlik 67°44'5,799").*

F dan A gacha Forish tumani yerlari bilan 36– 36 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

36-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 328 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'16,234",sharqiy uzunlik 67°43'55,114").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 3230 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'0,927",sharqiy uzunlik 67°43'53,187").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 2612 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'18,565",sharqiy uzunlik 67°43'22,467").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 223 metr masofani o‘tib quruq zovurga tutashadi va quruq zovurning o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 303 metr masofani o‘tib quruq

zovur bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'30,340",sharqiy uzunlik 67°43'33,595").*

40-nuqtadan chegara to‘g‘ri quruq zovurdan haydalma yerga o‘tadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 294 metr masofani o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 84 metr masofada Oqbuloq zovurini kesib o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'41,354",sharqiy uzunlik 67°43'28,579").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i Oqbuloq zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1640 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 42-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 40°30'15,301",sharqiy uzunlik 67°42'35,571").*

42-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan quruq ariqga o‘tadi va quruq ariqning chap tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1229 metr masofani o‘tadi keyin quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 66 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 43-nuqta tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'54,804",sharqiy uzunlik 67°42'33,617").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2538 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yidagi 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'17,049",sharqiy uzunlik 67°42'32,267").*

44-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1236 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i orqali o‘z yo‘nalishin o‘zgartirmagan holda 1745 metr masofada zovurga tutashadi so‘ng o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 570 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'18,213",sharqiy uzunlik 67°45'3,068").*

45-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan 4909 metr masofada zovurni kesib o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'57,095",sharqiy uzunlik 67°45'0,720").*

46-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 535 metr masofada zovur bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'58,870",sharqiy uzunlik 67°44'38,164").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2050 metr masofada zovurni kesib o‘tadi keyin zovur suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 285 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'5,259",sharqiy uzunlik 67°44'47,551").*

48-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan o‘tib haydalma yerga tutashadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 1110 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 711 metr masofani o‘tadi, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 300 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'13,674",sharqiy uzunlik 67°44'46,073").*

49-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 4840 metr masofada zovurni kesib o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'50,550",sharqiy uzunlik 67°44'43,846").*

50-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2317 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'47,450",sharqiy uzunlik 67°46'22,379").*

51-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan o‘tib quruq ariqga tutashadi keyin quruq ariqning o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1024 metr masofani o‘tadi, so‘ng quruq chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 2092 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 40°41'23,706",sharqiy uzunlik 67°46'21,170").*

52-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 1924 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'25,903",sharqiy uzunlik 67°46'27,183").*

53-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining avval janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 434 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1225 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'9,545", sharqiy uzunlik 67°46'13,804").*


54-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1232 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1337 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'20,692",sharqiy uzunlik 67°46'57,630").*

55-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2551 metr masofani o‘tib, Arnasoy, Forish va Mirzacho‘l tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yidagi boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'4,237", sharqiy uzunlik 67°48'23,272").*

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2024-yil 22-iyuldagi
VI-56-103-3-43-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyati Arnasoy tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Mirzacho'l tumani yerlari*
B dan D gacha *Do'stlik tumani yerlari*
D dan E gacha *Paxtakor tumani yerlari*
E dan F gacha *Zafarobod tumani yerlari*
F dan A gacha *Forish tumani yerlari*

Shartli belgilar

1 Chegaraning burilish nuqtalari

Tumanlar chegarasi